

## O'QUVCHILARNING IJTIMOIYLASHUVIDA MULOQOT FUNKSIYALARINING

### MAZMUN – MOHIYATI

Ergasheva Ro'zixol

Qiziriq tumani 14-maktab o'qituvchisi

Allamurodova Salomat

Qiziriq tumani 14-maktab o'qituvchisi

Chorshanbiyev Azamat

Qiziriq tumani 14-maktab o'qituvchisi

### Annotatsiya:

Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Muloqot quyidagi nuqtai nazarlarga ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Muloqot har qanday tirik mavjudotga xosdir. Faqatgina inson darajasida muloqot jarayoni og'zaki va og'zaki bo'lmagan harakatlar bilan bog'langan ongli bo'ladi. Hayvonlarda muloqot maqsadi boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlashdir. Hayvonlar turli tovushlar, harakatlar orqali sheriklarini xavfdan ogohlantiradi.

**Kalit so'z:** Muloqot, odam, shakl, nutq, vositasi, inson, sifat.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishi va shakllanishida muloqotning o'рни beqiyosdir. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi. Ruhiy jihatdan kamol topgan insonlar bilan muloqotga kirishish orqali, ilm olishga bo'lgan keng imkoniyatlar evaziga inson o'zining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallab borib, shaxsga aylanadi. Rus faylasufi R.S. Nemov inson muloqoti taraqqiyoti ontogenezi va uning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqqan. Nemovning fikriga ko'ra, "inson o'quvchisi o'zida odamlar bilan emotsional muloqotga kirishishga bo'lgan layoqatni uch oylikida seza boshlaydi. Go'dak bir yoshga yetganda uning ekspressiyasi shunchalik boyib ketadiki, muloqotning verbal tilini tezda o'zlashtirib olish, tovushli nutqdan foydalanish imkonini beradi".

Odanda muloqot maqsadlari juda ko'pdir. Dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va yetkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb

bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, axloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi[1].

Muloqotning juda murakkab jarayon ekanligi haqida B.F. Parigin shunday yozadi:

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birgaligida namoyon bo'ladi. Muloqotning shaxslararo tomonini oladigan bo'lsak, bunda insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bo'g'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Muloqotning kognitiv tomonida suhbatdoshning kim, qanday inson ekanligi, umuman olganda, bu inson haqida boshqa ko'pgina savollarga javob olish olish imkonini beradi[2].

Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlari, g'oyalar, hissiyotlari, qiziqishlari, orzu-istaklari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvdan iboratdir.

Muloqotning emotiv tomonini oladigan bo'lsak, suhbatdoshning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq. Muloqotning kognitiv (xulq-atvor tomondan) tomonida sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi[3].

Muloqotni turli vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Instrumental – bu muloqotning harakatni bajarishi uchun muhim axborotni yetkazishdan iborat bo'lgan asosiy ishchi vazifadir. Bu vazifaga yaqinroq bo'lgan, lekin unga unchalik o'xshash bo'lmagan vazifa, birlashtirish – sindikativ vazifa deyiladi[4].

Sindikativ vazifa bilan o'zini ifodalash vazifasi bir-biriga yaqindir. O'zini ifodalash o'z mohiyatiga ko'ra, hamfikrlikka, aloqaga qaratilgandir. Muloqotning translyatsion – faoliyatning aniq usullari, baholash mezonlari va dasturlarni yetkazish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta'lim olish asosida yotadi: muloqot orqali shaxsning ta'lim olishi amalga oshadi.

Odamlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim turlari verbal va noverbal muloqotdir. Noverbal muloqotda mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar yordamida amalga oshiriladi[5].

Verbal muloqot faqat insongagina xos bo'lib, zarur sharti shundan iboratki, u tilni o'zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Verbal muloqotda asosiy o'rinni so'zning qo'llanilish aniqligi, uning ifodalanishi, tovushlar, so'zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi[6].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so'zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo'lmagan o'zaro ta'sir – 53%ni tashkil etar ekan. Shuni

alohida ta'kidlash joizki, odamlarning amaliy faoliyatida muloqotining bir nechta turlari mavjud:

“a) “niqoblar aloqasi” – sherikning shaxs xususiyatlarini tushunishi va hisobga olishga intilishi mavjud bo‘lmagan rasmiy muloqotdir. Bunda haqiqiy his-tuyg‘ular, xohish va istaklar, munosabatlarni yashirish imkonini beruvchi rasmiy iboralar, xushmuo-malalik, dimog‘dorlik niqoblari, yuz, imo-ishora ifodalarining to‘plami qo‘llaniladi[7].

b) Rasmiy-rolli muloqot – bu sheriklarning ijtimoiy rollari darajasidagi muloqotdir. (boshliq – qo‘l ostidagi xodim, sotuvchi – xaridor). Rasmiy-rolli muloqotda ma‘lum qoidalar va xohishlar asosida ish yuritiladi. Muloqot mazmuni va vositalari ularga bo‘ysundirilgan.

2. Oddiy muloqotda boshqa odamga zarur yoki xalal beruvchi obyekt sifatida baho beradilar: agar zarur bo‘lsa, aloqaga faollik bilan kirishadilar, agar xalal beradigan bo‘lsa, itarib yuboradilar, yoki tahdidli qo‘pol iboralarni qo‘llaydilar[8].

d) Boshqariladigan muloqot turida suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli usullarni ( xushomad, qo‘rqitish, aldov va boshqalar) qo‘llagan holda undan foyda olishga qaratiladi.

e) Dunyoviy muloqot – bu turning mohiyati biror mavzuga oid bo‘lmasligidan iborat, ya‘ni odamlar o‘z fikrlarini emas, balki bunday vaziyatlar uchun umumiy bo‘lgan fikrlarni bildiradilar”. Muloqot turlaridan tashqari, uning ba‘zi bir shakllarini ham aytib o‘tish mumkin, bular: rasmiy-ish yuzasidan, mutaxassislik, xususiy, ommaviy, pedagogik muloqot, autokommunikatsiya (o‘zi bilan muloqot)lardir. V.N. Panomarev muloqotni “odamlarning o‘zaro ta’siri, uning mazmuni o‘zaro bilim va birgalikdagi faoliyat jarayoni uchun qulay bo‘lgan turli munosabatlar orqali ma‘lumot almashish” deb ta’riflaydi. V.N. Panomarev aloqada to‘rtta nuqtani ajratib ko‘rsatadi: mos ravishda aloqa, o‘zaro ta’sir, bilish, munosabatlar va aloqani o‘rganishning to‘rtta yondashuvi: kommunikativ, axborot, kognitiv va tartibga solish. Muloqotning funksiyalari: axborot, tartibga solish, affektiv[9].

Muloqot funksiyalari – bu muloqotning insonning ijtimoiy hayoti jarayonida bajaradigan rollari va vazifalaridir.

Axborot – shaxslar o‘rtasida axborot almashishdan iborat bo‘lib, uning tarkibiy elementlar quyidagilardir: kommunikator (axborot uzatuvchi), xabar mazmuni, qabul qiluvchi (xabarni qabul qiluvchi). Axborot uzatishning samaradorligi uni tushunishda, uni qabul qilish yoki rad etishda, o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi[10].

– tartibga solish va kommunikativ funksiya- bu funksiyada, keng ma’noda, odamlarning bir-biriga nisbatan xatti-harakatlarini nazorat qilinadi[40]. Muloqot tufayli shaxs nafaqat o‘z xatti-harakatlarini, balki boshqa odamlarning xatti-harakatlarini ham tartibga soladi.

– affektiv-kommunikativ funksiyada aloqa ta'sirida odamning holatini o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

Muloqotning o'zini insonni muayyan faoliyatga ruhlantirishda ham namoyon bo'ladi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigaгина manfaat keltiradigan ishlarga undaydi[41]. Demak, muloqot kishilarning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy munosabatlarda o'z o'rnini topishi, o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, psixologik maqsadlarga erishuvda eng muhim vosita va mexanizm sifatida mavjud ekan va muloqotning funksional alternativ variantlari hali insoniyat tomonidan o'ylab topilmagan[11]. Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega: muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi; muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega; o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi; pedagogikada muloqot - o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir; muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi; noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchi-ga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi[12].

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir[42]. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad: salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir[13]. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzorlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzorlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi. Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan[43]. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-

atvor shakllanadi[14]. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo‘lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg‘unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma’no va mazmunga ega. Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o‘z hayotida bog‘liq bo‘ladigan umumiyliklar bilan o‘zaro ta’sirini aks ettiradi[15].

Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, undan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘pgina savollarga javob berish imkonini beradi. Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g‘oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar turlicha bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi almashinuvdan iborat[44]. Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg‘ular, kayfiyatning funktsiya bajarishlari bilan bog‘liq. Muloqotning konativ (xulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Muloqot vositalarini muloqot jarayonida bir tirik jonzotdan boshqasiga etkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishlash va ochib berish vositalari sifatida ta’riflash mumkin[16].

Muloqot vositalariga quyidagilar kiradi:

- “1. Til – muloqot uchun qo‘llaniladigan so‘zlar, ifodalar va ularni muloqotda qo‘llash uchun ma’noli iboralarga birlashtirish qoidalari tizimi, shuningdek, turli ko‘rinish va shakllardagi (matnlar, chizmalar, suratlar), axborot yozish, etkazish va saqlashning texnik vositalari (radio-va videotexnika, yozuvning mexanik, magnitli, lazerli va boshqa shakllari) dagi belgilar tizimlari va yozuvdan iborat.
2. Ohang, emotsional ifodalanganlik, bir xil iboraga turlicha ma’no berishga qodir.
3. Suhbatdoshning mimikasi, gavda holati, nigohi ibora ma’nosini kuchaytirishi, to‘ldirishi yoki rad etishi mumkin.
4. Imo-ishoralar muloqot vositasi sifatida umumiy qabul qilingan, ya’ni, belgilangan ma’noga ega bo‘lishi yoki ekspressiv, ya’ni, nutqning ifodaliligini yanada oshirishi mumkin.
5. Suhbatdoshlar muloqotidagi masofa madaniy, milliy an’analariga, suhbatdoshga bo‘lgan ishonch darajasiga bog‘liq bo‘ladi”.

Inson o‘zining tur ichidagi muloqot usullari va vositalarini tanlashdagi kashfiyotchiligi bo‘yicha er sayyorasida bizga ma’lum tirik mavjudotlarni ancha quvib o‘tdi[17]. A.S.Makarenkoning fikricha, o‘qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo‘lishi lozim. V.D.Suxomlinskiy o‘qituvchining "maktab hovlisida gapirgan har bir so‘zi puxta o‘ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma’lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak" deb ta’kidlaydi[45]. O‘qituvchining har bir so‘zi olimning fikricha, nafaqat o‘quvchi qulog‘iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo‘lishi shart.

Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi[18]. Muloqot jarayonida o'qituvchi qisqa muddatda o'zining psixologik bilimlariga tayanib o'quvchining psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. O'quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo'lash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o'quvchilar bilan o'zaro muloqotni tuzatib bo'lmaz darajada buzilishiga, o'quvchilarning yashirin holatga o'z "qobig'i"ga kirib olishiga sabab bo'ladi[19]. O'qituvchilarning o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o'qituvchilar nazoratida bolishi, ularning oqibatini o'qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol o'quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, o'qituvchining o'quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi[20].

O'qituvchi ta'lim - tarbiyaviy faoliyatni o'quvchilar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o'quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: o'quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda o'quvchilarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim. O'qituvchining to'g'ri tashkil etilgan muloqoti o'quvchining o'zli-gini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda o'qituvchining funksiyasi muloqot asosida o'quvchilarga o'zining "Men"ligini anglashni, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak[21]. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya hatti – harakati, qo'polliqi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmaz qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida muloqot odobi, yaxshi muomala bilan fikr almashuv o'z o'rnini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi[46]. Ushbu salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaslik uchun, pedagogik muomalada o'quvchilar bilan o'zaro munosabat hurmat va ishonch negizida qurilishi kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchining huquq va majburiyatini, maktabda, jamoada, oilada bajaradigan funksiyalari nimalardan iborat ekanligini har lahzada eslatib turishi lozim. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi[22]. Ularning eng muhimlari o'quvchi ishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash usullaridir. Ishonchini qozonish usuli o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U o'quvchi ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali o'quvchilar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda

tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, o'quvchi bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi. Ishonchini qozonish usuli nafaqat o'qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta'lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi[23]. O'quvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O'qituvchi ishontirish bilan o'quvchida ijobiy hislatlarni uyg'otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o'quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo'lishi mumkin. O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy hislatlari har xil bo'lgani uchun bir o'quvchiga nisbatan foydali bo'lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini o'qituvchi muntazam o'rganib borishi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o'rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimiga bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'quvchilar ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo'lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart[24].

O'quvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalashidir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchining o'zini o'zi idora qilishi, o'zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir. O'quvchining yashirin qobiliyatlari o'z-o'ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi. O'quvchi uchun o'z o'zini baholash qiyin jarayon. O'quvchi ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarga ishonch bilan ergashib, o'ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o'z burchini to'g'ri tushunadi, bilish va o'rganishga qiziqishi kuchayadi, o'z-o'zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o'ziga atrof muhitdagi o'rtoqlari ko'zi bilan xolisona baho beradi, o'ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo'qotish va bartaraf etishga intiladi[25].

Ta'sir etish va ma'qullash usuli muloqotning umumiy jarayonidir. Ikki suhbatdoshning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma'qullatirish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida o'qituvchi o'quvchi ruhiyatiga va xulq-atvoriga tarbiyaviy maqsadni ko'zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi psixikasida nazoratsiz kiradi. Ushbu usul, muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda axloqiy-irodaviy hislatlarni faol takomillashtiradi. O'qituvchi xushmuomalaligi, muloqot

odobining cheksiz qudrati bilan o'quvchilar psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta'sir etadi, o'qituvchi va o'quvchining yaqindan muloqotda bo'lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma'qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi[26].

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi yetakchi tamoyillaridan o'rinli foydalanishi lozim:

Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda demokratik yondashuv. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchini ijtimoiy qadriyat deb tan olishi, har bir o'quvchi, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e'zozlashi lozim. Zero, ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo'naltirish demakdir". Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmaslik, insonga nisbatan bebaho boylik sifatida munosabat tuyg'ularini o'quvchilarda ham shakllantirish funksiyasi bajariladi[27].

O'quvchilar bilan do'stona munosabat. Aslida muloqotdan maqsad o'quvchilar bilan do'stona munosabatni ro'yobga chiqarishdir. O'quvchi shaxsini hurmat qilish o'qituvchining insonparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muxabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart[28]. O'quvchilarga nisbatan hurmat tuyg'usi ularning kuchiga kuch qo'shadi, o'z imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi o'qituvchilarning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin[29]. O'z faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchilar ayniqsa, har bir o'quvchining kelajagiga umid bilan karashlari, unga individual yondashishga harakat qilishlari, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo'llamasliklari, o'quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yishga intilishlari lozim. Yosh o'qituvchilar ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallashga intilmasalar, o'z fanidan bilimlari sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasalar, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasalar, o'quvchilar uni asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchilar muloqotida tuzatib bo'lmaz xatoliklar paydo bo'lishi mumkin[30].

Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog'lab olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etilgan[31]. Oila muhiti o'quvchining tarbiyasi va barkamol inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shuning uchun o'qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, o'quvchilar jamoasi faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi[32]. Muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o'rni. Ta'lim muassasalarida o'quvchi mehnat faoliyati bilan o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Mehnat – yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi o'quvchini jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi[33]. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muxabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun u mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim[34].

Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubi. Bunday muloqot uslubiga odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar tushib qolishi mumkin. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot ko'pincha o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan o'quvchilar hatti-harakatini ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi[35]. Muloqot jarayonidagi ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar bilan o'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo bo'ladi. Ba'zan o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan, yoki o'qituvchining o'quvchilar yosh

xususiyatlarini, fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi. Muloqot jarayonidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda asosan o'qituvchining o'zi qizg'in faoliyat olib borishi, ustoz o'qituvchilar tajribalaridan foydalanishi, lozim bo'lganda, tortinmasdan ulardan yordam so'rashi maqsadga muvofiqdir[36].

O'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarni, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o'qituvchi timsolida anglab olishini unutmaslik kerak. O'quvchilar jamoasida o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi[37].

O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so'zlashishni bilish lozim. So'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim. Vizual aloqa – Spikerga qarash yo'q degan ma'noni anglatadi faqat qiziqish, lekin diqqatimizni jamlashga yordam beradi bizga aytilgan narsalar haqida[38].

To'g'ri, bu ijtimoiylashuvda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi. Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro ijtimoiylashuvdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial – birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala funksiyalari va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi hamda samaradorlikning muhim omillaridandir[39].

Insonning ma'naviy qiyofasi uning muloqot funksiyalarida ifodalanadi. U o'zining his-tuyg'usini, ichki tug'yoni, orzu umidlarini muloqot jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan o'zaro muloqotsiz, ijtimoiylashuvsiz, o'zaro ta'sirsiz vujudga kelmaydi. Muloqot-kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi o'zaro munosabatlarning muhim shakli. Muloqot jarayonida kishi o'zining tashqi olam, jamiyatning turmush tarzi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti haqidagi qarashlari, tasavvuri va hissiyotini ifodalaydi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Babanazarovich, N. H. (2020). Technology of organization of integrated lessons in teaching biology. European journal of research and reflection in educational sciences, 8(2).
2. Норбутаев, Х. Б. (2018). Технологии Развивающего Обучения В Системе Образования. Гуманитарный трактат, (29), 33-35.
3. Норбутаев, Х. Б. (2017). Формирования Экологического Знания У Школьников Изучение Учебных Материалов По Физики. Апробация, (2), 95-96.
4. Babanazarovich, N. H. (2021). Using of Innovative Educational Technologies in the Improvement of Ecological Thinking by Pupils in the Field of Biology Sciences. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(6), 84-88.
5. Narbutaev, H. B. (2021). Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. Current Research Journal Of Pedagogics, 2(10), 12-16.
6. Норбўтаев, Х. Б. (2016). Бошланғич синф табиатшунослик дарсларида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш методикаси. Современное образование (Узбекистан), (6), 34-39.
7. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишда Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. Современное образование (Узбекистан), (8 (93)), 74-79.
8. Норбутаев, Х. (2012). Мактаб укувчиларида экологик тафаккурни фанлараро шакллантириш (биология ва физика фанлари мисолида). Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.
9. Narbutaev, K. B. (2020). RAISING THE ECOLOGICAL CULTURE OF THE STUDENT IN TEACHING BIOLOGY IN CONNECTION WITH OTHER DISCIPLINES. Theoretical & Applied Science, (6), 714-717.
10. Babanazarovich, N. H. (2021). The essence of integration in primary education classes.
11. Babanazarovich, N. H. (2022). IMPROVING THE KNOWLEDGE OF ECOLOGICAL CONTENT IN PUPILS IN INTERDISCIPLINE FOR TEACHING BIOLOGY. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
12. Норбўтаев, Х. Б. (2018). Бошланғич синфларда фанлараро экологик тарбия. Современное образование (Узбекистан), (11), 53-58.
13. Narbutaev, H. B. (2021). Natural inter subjects formation of ecological thinking in school pupils. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 419-426.

14. Норбўтаев, Х. Б. (2015). Бошланғич синфларда дидактик ўйинли таълим технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги. Современное образование (Узбекистан), (6), 64-70.
15. Норбутаев, Х. Б. (2018). МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР НА КЛАССНЫХ И ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЯХ. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всеяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 53.
16. Норбутаев, Х. Б. (2018). Развитие Экологического Мышления У Школьников При Изучение Учебных Материалов По Биологии The Development Of Ecological Thoughts Of Pupils Through Learning Of Biology. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 16.
17. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишда Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. Современное образование (Узбекистан), (8 (93)), 74-79.
18. Zebiniso, K. (2022). Forming of universals culture values and upbringing learners idea of peace. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1830-1834.
19. Қодирова, А. Б. (2022). АБУ АБДУЛЛОҲ МУҲАММАД ИБН АЛИ ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ОҚИЛЛАР ВА АЛДАНГАНЛАР” АСАРИДА НАФС ТАРБИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Science and innovation, 1(B3), 119-124.
20. Қодирова, А. Б. (2019). The views of Al Khakim At-Termizi on the theory of cognition. Psixologiya, (1), 88-90.
21. Kodirova, A. B. (2022). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI ACCORDING TO THE SCIENTIFIC CONTENT AND THE THEORY OF SUFISM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 1287-1292.
22. Kodirova, A. B. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF THE MYSTICAL IDEAS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 1281-1286.
23. Qodirova, A. (2022). УЛУҒ МУҲАДДИС ИМОМ АТ-ТЕРМИЗИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. Science and innovation, 1(B7), 1086-1090.
24. Abdullaeva, B., Yakubova, G., Mukhtarova, A., & Kodirova, A. (2020). Development of practical competencies of psychologists. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1143-1146.

25. Khimmataliev, D. O., Khakimova, M. F., Khamidov, J. A., Abdullaeva, R. M., & Daminov, L. O. Improving the professional competence of professional teachers, мақола. Journal of Critical Review, (103).
26. Khimmataliev, D. O., Olmov, K. T., Abdullaeva, R. M., Ergashev, B. B., & Chulponova, K. T. (2021). Mechanisms of professional competence development in future teachers based on pedagogical and technical knowledge. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2950-2958.
27. Абдуллаева Р. Лидерлик ва раҳбарлик сифатларининг боғлиқлик жиҳатлари. Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплави. 2019:255-6.
28. Абдуллаева , Р. (2022). ТАЪЛИМДА ТАЛАБАНИНГ ИНДИВИДУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований, 2(1).  
извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1986>.
29. Usmanovna, A. N. (2021). The role of parents in the upbringing of children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1995-1999.
30. Nargiza Alimova Usmonovna. (2022). RAISING CHILDREN IS THE BIGGEST RESPONSIBILITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1524-1529.
31. Usmonovna, A. N. (2022). FARZAND RUHIY TARBIYASIDA OTA-ONANING MA'SULLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B3), 477-480.
32. Usmanovna, A. N. (2022). Parental Relationship in Child Raising Psychological Properties. Eurasian Scientific Herald, 14, 13-16.
33. Sharafutdinova, K. G. (2020). Destruction of family relations psychoprophylaxis family-neighborhood-educational institution cooperation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1000-1007.
34. Шарафутдинова, Х. Г. (2021). OILADA DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 231-236.
35. Sharafutdinova, K. G. (2021). THE ROLE OF TEMPERAMENT IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND DESTRUCTIVE INDIVIDUAL RELATIONSHIP STYLE. Theoretical & Applied Science, (8), 210-214.
36. Gulyamutdinovna, S. K. (2021). Manipulative relationship of a destructive person in the family. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 175-179.

37. Sharafutdinova, K. (2022). Advantages of focusing on positive psychology in eliminating destruction of family relations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 423-430.
38. Sharafutdinova, K. (2022). Application of psychological methodologies in diagnosis of personal destruction.
39. Gulyamutdinovna, K. S. (2022). APPLICATION OF COGNITIVE PSYCHOTHERAPY IN THE DESTRUCTION OF FAMILY RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 5-10.
40. Хидирова, И. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ. In Молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 93-96).
41. Хидирова, И. Н., & Гелдиева, Д. Э. (2020). ФОРМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛАГОЛА В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 7-11).
42. Хидирова, И. Н. (2019). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ИНОСТРАННОМУ. Интернаука, (19-3), 16-17.
43. Хидирова, И., Саттарова, Г. Х., Карабаева, Д. Э., & Рахимов, Н. И. (2018). КАТЕГОРИЯ ВРЕМЕННОЙ ОТНЕСЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО ГЛАГОЛА. Студенческий вестник, (24-1), 49-51.
44. Niyozalievna, I. K., & Saitovna, K. T. (2022). Creating English environment in teaching esp.
45. Niyozaliyevna, K. I., & Saitovna, T. K. (2022). Using Interactive Methods In Learner-Centered Lessons. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 68-70.
46. Niyozalievna, K. I. (2022). TO DEVELOP STUDENTS' WRITING SKILLS IN TEACHING ENGLISH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 113-119.